"O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro konferensiya o'z ishini boshladi

Bugun, 30-avgust kuni Toshkent shahridagi "Xalqaro forumlar saroyi"da mustaqilligimizning 30 yilligi munosabati bilan Fanlar akademiyasi tomonidan tashkil etilgan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro konferensiya o'z ishini boshladi.

Unda respublikamiz hamda xorijdan 200 ga yaqin yetakchi olim va mutaxassislar, diplomatik korpus vakillari oflayn hamda onlayn ishtirok etishmoqda.